

Ilmiy ishlar

Kafedrada quyidagi ilmiy - tadqiqot ishlari olib borildi va ularning natijalari

Kafedrada 2020-2021 o'quv yilida 1 ta Davlat byudjeti doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan: "Qishloq xo'jaligi texnikalari parkidan samarali foydalanish va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini takomillashtirish" (2020-2024 yillargacha, rahbar professor A.Igamberdiev). Kafedraning barcha professor-o'qituvchilarini "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" asosida 2021 yildan quyidagi ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda faol ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Kafedraning yangi tahrirdagi ilmiy yo'nalishlari quyidagi mavzular doirasida bajariladi:

1. Qishloq xo'jaligi texnikalari parkidan samarali foydalanish va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini takomillashtirish.
2. Mashina traktor agregatlar texnik samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini yaratish.
3. Dizel dvigatellarda muqobil yonilg'i aralashmalarini turbilizatsion usulda alangalantirishning nazariy-texnologik asoslarini yaratish.
4. Saksavul va cherkez o'simliklari urug'ini ekishni mexanizatsiyalashning ilmiy-texnologik echimi
5. Qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan tuproqqa ishlov beradigan texnik vosita ishchi qurollari parametrlarini asoslash.
6. Energiyatejamkor kultivator ish qurollari parametrlarini asoslash

yillar	Kafedra mudiri va jamoa
2020-2023	A.Igamberdiev va professor-o'qituvchilar
2021-2023	S.Aliqulov N.Razikov
2021-2024	B.Xakimov
2021-2022	E.Farmonov
2021-2024	A. Igamberdiev E. Usmonov
2021-2023	A. Igamberdiev G. Usmanova

Kafedrada 2021 yilda 1 ta DSc doktorant (E.T.Farmonov-3 kurs), 1 ta assistent (U.Berdimurodov) dissertatsiya ishlarini yakunlab asosiy himoyaga chiqishi rejalashtirilgan. 1 ta PhD doktorant (G.Usmanov-1 kurs), 2 ta mustaqil tadqiqotchilar (E.Usmanov va N.Razikov) dissertatsiya ishi mavzularini shaklantirib O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish Vazirligidan ro'yxatdan o'tkazib, dissertatsiya ishlari ustida ilmiy ishlarini olib bormoqdalar. OT-I-100 "Bioyonilg'ida ishlaydigan innovatsion traktor dvigatelini axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida yaratilgan ta'minlash tizimini loyihalash va ishlab chiqish" Davlat Granti bo'yicha (2021-2022 yillargacha, bajaruvchilar dotsentlar B.Xakimov va dots. N.Xoliqova) mavzudagi ilmiy tadqiqot ishini olib borilmoqdalar va ma'lum natijalarga erishildi. Kafedraning ilmiy ishlariga QXM fakultetining II-IV bosqich talabalari jalb kilingan. Kafedra professor-o'qituvchilar har yili institutda o'tkaziladigan «Kishlok va suv xo'jaligining zamonaviy muoammolari» mavzusida o'tkaziladigan an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanga talaba va magistrantlarni konferensiyada ma'ruza bilan chiqishga tayyorladilar va ular konferensiyada qatnashdilar. Talaba va magistrantlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish maqsadida kafedrada "YOsh chilangarlar" to'garagi tuzilgan. To'garakda bu yil 13 talaba va 3 ta magistr ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Kafedra professor-o'qituvchilar, talaba va magistrantlarning ilmiy- tadqiqot ishlarining natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar nashrlarida muntazam e'lon qilib borilmoqda. Jumladan kafedra bo'yicha 2 nafar magistrantlar o'zlarining ilmiy maqlolarini chop ettirishga muvoffaq bo'ldilar:

1. Igamberdiev A.K., Begaliev A.SH., G'ulamov M.S., Azimov S. Qishloq xo'jaligi texnikasidan samarali foydalanish, texnikaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish// Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining 2021, 25-26-maydaggi XX - YOsh

olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqollar to'plami. Toshkent, TIQXMMI, 2021.-6 b.

2. Igamberdiev A.K., Begaliev A.SH., Usmanov E. Qishloq xo'jaligi texnikasi parkidan samarali foydalanish va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish// Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining2021, 25-26-maydagi XX - YOsh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqollar to'plami. Toshkent, TIQXMMI, 2021.-6 b.
3. A.K.Igamberdiyev, A. Sh. Begaliyev, E.Usmanov. Efficient use of agricultural machinery park and improvement of technical services system// Collection of articles of the Tashkent Scientific-Practical Conference of Young Scientists, Masters and Gifted Students of the Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, May 25-26, 2021. Tashkent, TIQXMMI, 2021.-6 p.
4. Igamberdiev A.K. - t.f.d., professor, Usmanova G. - 1 kurs doktorant, Usmanov E. -mustaqil tadqiqotchi, G'ulamov M.S. - QXM mutaxassisligi 2 kurs magistranti. "G'o'za qator orasini yumshatadigan ishchi qurol parametrini asoslash// Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining2021, 25-26-maydagi XX - YOsh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqollar to'plami. Toshkent, TIQXMMI, 2021.-6 b.

Kafedraning professorlari va o'qituvchilari o'zbek va rus tillarida ma'ruba, amaliy va tajriba mashg'ulotlarni o'tmoqdalar. Kafedrada 3 ta bakalavr ta'lif yo'nalishi va 1 ta magistrlik mutaxassisliklariga 15 ta fandan darslar o'tilmoqda. 2021-2022 o'quv yilida kafedrada 12 nafar xodim, jumladan, 1 ta professor, 3 ta t.f.n. dotsent, 3 ta PhD dotsentlar faoliyat yuritmoqda. 05.07.01- "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" ixtisosligi bo'yicha 1 nafar doktorant, 1 nafar tayanch doktorant va 3 nafar mustaqil tadqiqotchi ilmiytadqiqot ishlarini bajarmoqdalar. Kafedrada 2020-2021 yillarda 53 ta ilmiy maqola (shundan, «Scopus» va boshqa nufuzli xorijiy ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari jurnallarida - 10 ta, xalqaro konferensiyalarda - 22 ta; mahalliy jurnallarda 9 ta), 11 ta tezis (shundan, 5 ta xorijiy anjumanlarda), 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya, 4 ta mualliflik guvohnomasi olindi. Kafedrada 2021 yilda 23 million so'mlik 3 ta (5 mln. so'mlik rahbar N.Xolikova, 8 mln. so'mlik rahbarA.Igamberdiev, 10 mln so'mlik, rahbar Z.SHaripov) xo'jalik shartnomasi bajarilmoqda.